

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

BURANOVA RAZIYA YERMAXAMED QIZI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI JINOYATCHILIKNI
KRIMINOLOGIK PROGNOZ QILISH**

12.00.15 – Kriminologiya (yuridik fanlar)

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD)

Buranova Raziya Yermaxamed qizi

О‘zbekiston Respublikasidagi jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilish3

Буранова Разия Ермахамед кизи

Криминологическое прогнозирование преступности в Республике Узбекистан21

Buranova Raziya Yermaxamed kizi

Criminological crime prediction in the Republic of Uzbekistan41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works46

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

BURANOVA RAZIYA YERMAXAMED QIZI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI JINOYATCHILIKNI
KRIMINOLOGIK PROGNOZ QILISH**

12.00.15 – Kriminologiya (yuridik fanlar)

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Yu1072 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Akademiya Ilmiy kengashi veb-sahifasi (<https://akadmvd.uz>) va “Ziyonet” axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdurasulova Qumrinisa Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Zakirova Adina Gulyamovna
yuridik fanlar doktori, professor

Gordeyev Sergey Nikolayevich
yuridik fanlar doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 30-aprel kuni soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel./faks: (+99871) 265-22-52; e-mail: info@akadmvd.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1548-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel.: (+99871) 265-22-52.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 10-aprel kuni tarqatildi.

(2025-yil 10-apreldagi 9-raqamli reestr bayonnomasi).

A.S. Tursunov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

A.D. Xusanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Sh.A. Kulmatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda jinoyatchilik ko‘lami, darajasi, tuzilishi va u bilan bog‘liq jarayonlarning xilma-xilligi yildan yilga ortib borayotganligi, uning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga ta‘sirini kuchaytirib, jinoyatchilikka qarshi kurashishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shuningdek, bu holat jinoyatchilikka qarshi samarali kurashish uchun kriminologik tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish, uning kelgusi tendensiyalarini aniq prognoz qilish va profilaktik chora-tadbirlarni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayni paytda, Xalqaro kriminologiya hamjamiyati (ISC)¹ global miqyosda jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan ilmiy va amaliy muammolarni tadqiq qilish, davlatlarga huquqiy va tashkiliy choralarni kuchaytirish, jinoyatchilikning rivojlanish yo‘nalishlarini o‘rganish va uning oldini olish uchun ilmiy asoslangan prognozlar ishlab chiqish bo‘yicha tavsiyalar taqdim etishi mazkur yo‘nalishning qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatmoqda. Xalqaro jinoyatchilik indeksi (Numbeo) ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda jinoyatchilik darajasi eng yuqori bo‘lgan davlatlar reytingida O‘zbekiston 120-o‘rinni egallab, jinoyatchilik indeksi 29 ga teng ekanligi² aniqlanganligi, Xitoy Xalq Respublikasi (24,4), Koreya Respublikasi (24,8), Yaponiya (22,7) va BAA (15,6) kabi iqtisodi rivojlangan davlatlarda esa bu ko‘rsatkich ancha pastligi, jinoyatchilikning oldini olishda kriminologik prognozni amalga oshirish va jinoyatchilikka qarshi kurash choralari samarali tashkil etish zaruratini ko‘rsatadi.

Jahonda jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun kriminologik prognoz qilish, mintaqadagi kriminogen vaziyatni, raqamli texnologiyalar yordamida jinoyatchilik holatini tahlil qilish, raqamli kriminologiya, kriminologiyada matematik usullardan foydalanish, statistik ma‘lumotlarga asoslangan holda jinoyatchilik darajasini kriminologik prognoz qilish, zo‘rluk ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarni prognoz qilish, ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinganlar jinoyatchiligini, iqtisodiyot sohasidagi jinoyatchilikni, residiv jinoyatlarni prognoz qilish, mintaqaviy jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish, qonun ijodkorligi va huquqni muhofaza qilish bilan bog‘liq mavjud muammolarga oid tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ga muvofiq qonun ustuvorligini mustahkamlash, jamoat xavfsizligini ta‘minlashning samarali tizimini yaratish, huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarliklar profilaktikasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jinoyatchilik tabiatidagi salbiy tendensiyalar va o‘zgarishlar, uning haqiqiy holati to‘g‘risida ma‘lumotlarning yetishmasligi, jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha kelgusidagi harakatlar va vazifalarni rejalashtirish hamda belgilashda samarali kuch va vositalardan foydalanilmayotganligi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining o‘z vaqtida muvofiqlashtirilmayotganligi va baholanmayotganligi, kelajakda jinoyatchilikning oldini olishni prognoz qilishning aniq bir umumiy metodologiyasi yo‘qligi, jinoyatchilikka

¹ URL: <http://www.isc-sic.org/web/>

² URL: <https://www.numbeo.com/crime/rankings.jsp?title=2024-mid&displayColumn=0>

qarshi kurashish jarayonini raqamlashtirish, qonunchilik bazasini takomillashtirish zaruratining mavjudligi mazkur tadqiqot mavzusining dolzarb va zarur ekanligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlari boshqaruv, nazorat va shaxsiy tarkib bilan ishlashning samarali tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2018) hamda “Kriminologiya sohasida ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2024) qarorlari, “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” (2022) va “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasini “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi (2023), “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (2024) Farmonlari, shuningdek, ushbu sohani tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. ”Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dissertatsiya ishining nazariy asosini K.R. Abdurasulova, I. Ismailov, R. Kabulov, Y. Karaketov, M.M. Kalandarov, G.S. Karshiyev, A.X. Muxiddinov, A.K. Rasulev, A.G. Zakirova, Z.S. Zaripov, kabi milliy, Y.M. Antonyan, S.V. Borodin, A.A. Gersenzon, S.A. Golunskiy, I.I. Karpes, V.Y. Kvashis, N.I. Karpes, V.N. Kudryavsev, Y. Larina, V.V. Luneyev, P.P. Osipov, V.A. Pleshakov, F.K. Ryabikin, S.Y. Vitsin, A.Y. Vishinskiy, B.M. Shaver, O.V. Zinchenko kabi xorijiy olimlarning kriminologiya, jinoyat huquqiga oid ilmiy ishlari tashkil etadi.

Xorijiy olimlar orasida jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilish bilan bog‘liq masalalar R.M. Abizov, K.R. Abizov, G.A. Avanesov, V.V. Ageyev, Y.M. Antonyan, V.A. Anfinogenov, O.R. Afanaseva, N.R. Axmetzakirov, Y.D. Bluvshiteyn, I.M. Feygenberg, O.V. Gleba, I.V. Goroshko, O.V. Denisova, A.I. Dolgova, Y.N. Jdanov, G.Y. Juravlev, N.V. Kiyko, S. Kislisin, M.P. Kleymenov, A.O. Kluneyko, V.N. Kudryavsev, A.N. Larkov, A.V. Lebedev, G.Y. Lesnikov, V.A. Lisichkin, Y.A. Loginov, A.I. Miller, A.M. Moskin, V.Y. Novichkov, V.S. Ovchinskiy, K.A. Sisengaliyev, A.V. Sokolov, Y.V. Solopanov, K.A. Utarov, M.D. Volkov, E.B. Xatov, A.P. Zakalyuk, A.A. Chulok, A.Y. Shalagin, A.D. Sharapova, A. Vilks, I. Andenes, S. Marrin, Alison, Preuss, Priscillia Hunt, Jessica Saunders, S. John, Edd Gent, Joshua Howgego, H.R. Jerry, K. Marks, F. Engels³ning ilmiy ishlarida o‘rganilgan.

Tadqiqot davomida jinoyatchilikning latentligi bilan bog‘liq muammolariga bag‘ishlangan S.M. Inshakova, V.E. Kvashis, L.M. Sherbakova, G‘.S. Karshiyev, A.K. Rasulevlarning ilmiy ishlari o‘rganilgan.

³ Ushbu olimlarning asarlari dissertatsiyada berilgan.

Mamlakatimiz sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijalari, qonunchilik va qonunni qo'llash amaliyoti, xorijiy davlatlarning ijobiy tajribasi, jinoyatchilik darajasining, xususan, latent jinoyatchilikning oshishi, xodimlarda jinoyatchilikni prognoz qilish sohasidagi ko'nikmalarning yetarli emasligi bois respublikada jinoyatchilikning kriminologik prognoz qilish tizimi kompleks tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Kriminologiya sohasini takomillashtirishning dolzarb masalalari" (17-bandi) (2025) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kriminologiyaning muhim vazifalaridan biri sifatida jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilishni o'rganish;

kriminologik prognoz turlari va amaliyotda jinoyatchilikni prognoz qilishda qo'llaniladigan usullarni tahlil qilish;

jinoyatchilikni samarali prognoz qilishga xizmat qiladigan usullarni aniqlash va ularni amaliyotga joriy etish yo'llarini aniqlash;

mamlakatdagi kriminogen vaziyatning rivojlanish prognozini ishlab chiqish uchun jinoyatchilik holatini o'rganish;

jinoyatlarni prognoz qilish bo'yicha tashkiliy choralarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish;

jinoyatchilikning o'z vaqtida va samarali kriminologik prognozini amalga oshirilishiga, xorijiy tajribani milliy amaliyotga joriy etishga qaratilgan ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, shuningdek amaldagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti O'zbekiston Respublikasidagi jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilish bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimidan iboratdir.

Tadqiqotning predmetini jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilish, uning usullari, ularni amaliyotda qo'llash qonuniyatlari, ayrim xorijiy davlatlar tajribasi, shuningdek qonunchilikdagi konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlarga oid normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishi jarayonida bilishning analiz, sintez, induksiya, deduksiya, umumlashtirish, kuzatish, tarixiylik, tizimli yondashuv, qiyosiy-huquqiy, statistik usul, sotsiologik so'rov usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

hisobot davrida mahalla hududida sodir etilgan oldi olinishi mumkin bo'lgan jinoyatlar har bir mahalla kesimida hisobga olinishi hamda tuman (shahar) ko'rsatkichini shakllantirishda faqat jinoyat sodir etilgan mahallalar aholisi soni inobatga olinishi lozimligi asoslantirilgan;

tuman (shahar)da joylashgan mahallalarni qizil, sariq, yashil toifalarga ajratishda, mahalla hududida sodir etilgan jinoyatlar (oldini olish mumkin bo'lgan) salmog'i tuman

(shahar) ko'rsatkichiga nisbatan yuqori bo'lsagina, mahallalar "qizil" toifaga kiritilishi lozimligi asoslantirilgan;

jinoyat sodir etgan alohida toifadagi (voyaga yetmagan, ayol, ishsiz, ilgari sudlangan, mast holatda bo'lgan, profilaktik hisobda hamda ma'muriy nazorat ostidagi) shaxslar hisoboti mahallalar kesimida yuritilishi va "qizil" toifadagi mahallalarni belgilashda inobatga olinmasligi kerakligi asoslantirilgan;

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo'linmalariga birlashtirilgan ommaviy tadbirlarni o'tkazish joylari, istirohat bog'lari, xiyobonlar, bozorlar, qo'riqlanadigan maxsus ob'ektlar hamda jazoni ijro etish muassasalari hududida, shuningdek, axborot texnologiyalari yordamida sodir etilgan yoxud plastik kartadan pul mablag'larini yechib olish bilan bog'liq, "Elektron jinoiy-huquqiy statistika" yagona axborot tizimini yuritish tartibi to'g'risidagi nizomning 8-ilovasida ko'rsatilgan jinoyatlar mahalla hududida oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar hisobiga qo'shilmasdan alohida yuritilishi kerakligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

"kriminologik prognoz qilish" va "kriminologik prognoz" tushunchalarining mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan hamda jinoyatchilikning kriminologik prognozini amalga oshirishning asosiy bosqichlari va metodologiyasiga doir muayyan talablar shakllantirilgan;

tahliliy faoliyat bilan shug'ullanadigan ichki ishlar organlari xodimlarining jinoyatchilikni prognoz qilish jarayonida Microsoft Excel dasturiy ta'minoti ("predskaz.lineyn." formulasi) orqali prognoz qilishni joriy qilish lozimligi asoslantirilgan;

ichki ishlar organlarining tahliliy bo'limlari (xizmatlari) tarkibiga "kriminolog" lavozimini kiritish hududlarning va ular tomonidan elektron "kriminogen vaziyat xaritalari" yuritilishi zarurligi asoslantirilgan;

jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilishning maxsus dasturiy ta'minotini yaratish konsepsiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi. Tadqiqot natijalari xorijiy davlatlarning tajribalari, xalqaro va milliy qonunchilik, amaliyotidagi keng qo'llanilayotgan tajribalar, 100 ta ilmiy xodimlar (Akademiyaning professor-o'qituvchilari va doktorantlari), 100 ta amaliyot xodimlari, 100 ta mahkumlar o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rov (intervyu olish, anketa so'rovi) natijalari, 2018-2024-yillardagi statistik ma'lumotlarning tahliliga tayangan holda asoslantirilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o'tgan. Tadqiqotning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan hamda vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati dissertatsiyadagi ilmiy-nazariy xulosalar hamda taklif va tavsiyalardan kelgusida jinoyatchilikning kriminologik prognoz qilish tizimini takomillashtirish bilan bog'liq tadqiqot ishlarida, qonun ijodkorligi jarayonida, qonunchilikni qo'llash amaliyotida, milliy qonunchilikni takomillashtirishda, "Kriminologiya" fanini ilmiy-nazariy jihatdan boyitish uchun foydalanish mumkinligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan xulosalar, taklif va tavsiyalardan jinoyat qonunchiligini takomillashtirishga oid qonun hujjatlari

loyihalarini, jinoyatchilikni prognoz qilish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha qonunosti hujjatlarini ishlab chiqishda, shuningdek, jinoyatchilikning oldini olish amaliyotida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan prognoz qilish usullaridan foydalanishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilish tizimini takomillashtirish, uning metodologiyasi va amaliyotda qo'llanilishi haqidagi ilmiy bilimlarni oshirish bo'yicha ilmiy natijalari asosida:

hisobot davrida mahalla hududida sodir etilgan oldi olinishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning har bir mahalla kesimida hisobga olinishi hamda tuman (shahar) ko'rsatkichini shakllantirishda faqat jinoyat sodir etilgan mahallalar aholisi soni inobatga olinishi zarurligi to'g'risidagi takliflardan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura, Milliy gvardiya, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Soliq qo'mitasining 2023-yil 5-sentabrdagi 49/36qq/28/18qq/2023-02-son qarori asosida "Mahallalarni kriminogen vaziyatidan kelib chiqqan holda toifalash hamda hamkorlikda profilaktik tadbirlarni tashkil etish to'g'risidagi yo'riqnoma"ning 5-bandi 1-xatboshisini yangi tahrirda ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2024-yil 7-avgustdagi 2/2-1302-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi mahalla hududida sodir etilgan jinoyatlarni hisobga olishning ishonchligini ta'minlashga va tuman (shahar) ko'rsatkichlarining ushbu hududlardagi aholi soniga nisbatan to'g'ri shakllantirilishiga xizmat qilgan;

tuman (shahar)da joylashgan mahallalarni qizil, sariq, yashil toifalarga ajratishda, mahalla hududida sodir etilgan jinoyatlar (oldini olish mumkin bo'lgan) salmog'i tuman (shahar) ko'rsatkichiga nisbatan yuqori bo'lsagina, mahallalar "qizil" toifaga kiritilishi lozimligiga doir takliflardan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura, Milliy gvardiya, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Soliq qo'mitasining 2023-yil 5-sentabrdagi 49/36qq/28/18qq/2023-02-son qarori asosida "Mahallalarni kriminogen vaziyatidan kelib chiqqan holda toifalash hamda hamkorlikda profilaktik tadbirlarni tashkil etish to'g'risidagi yo'riqnoma"ni 8-bandi 1-xatboshisini yangi mazmunda ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2024-yil 7-avgustdagi 2/2-1302-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi mahalladagi jinoyatchilik darajasidan kelib chiqqan holda mahallalarni to'g'ri toifalashga xizmat qilgan;

jinoyat sodir etgan alohida toifadagi (voyaga yetmagan, ayol, ishsiz, ilgari sudlangan, mast holatda bo'lgan, profilaktik hisobda hamda ma'muriy nazorat ostida turgan) shaxslarga oid hisobot mahallalar kesimida yuritilishi va "qizil" toifadagi mahallalarni belgilashda inobatga olinmasligiga doir takliflardan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura, Milliy gvardiya, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Soliq qo'mitasining 2023-yil 5-sentabrdagi 49/36qq/28/18qq/2023-02-son qarori asosida "Mahallalarni kriminogen vaziyatidan kelib chiqqan holda toifalash hamda hamkorlikda profilaktik tadbirlarni tashkil etish to'g'risidagi yo'riqnoma"ni 8-bandi 2-xatboshisini yangi mazmunda ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2024-yil 7-avgustdagi 2/2-1302-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi alohida toifadagi shaxslar hisobini "qizil" toifadagi mahallalarni belgilashda inobatga olmasligiga xizmat qilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘linmalariga birlashtirilgan ommaviy tadbirlarni o‘tkazish joylari, istirohat bog‘lari, xiyobonlar, bozorlar, qo‘riqlanadigan maxsus ob‘ektlar hamda jazoni ijro etish muassasalari hududida, shuningdek, axborot texnologiyalari yordamida sodir etilgan yoxud plastik kartadan pul mablag‘larini yechib olish bilan bog‘liq, “Elektron jinoiy-huquqiy statistika” yagona axborot tizimini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 8-ilovasida ko‘rsatilgan jinoyatlar mahalla hududida oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar hisobiga qo‘shilmasdan alohida yuritilishi kerakligiga doir takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura, Milliy gvardiya, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Soliq qo‘mitasining 2023-yil 5-sentabrdagi 49/36qq/28/18qq/2023-02-son qarori asosida “Mahallalarni kriminogen vaziyatidan kelib chiqqan holda toifalash hamda hamkorlikda profilaktik tadbirlarni tashkil etish to‘g‘risidagi yo‘riqnoma”ning 2-bandi yangi mazmundagi ikkinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2024-yil 7-avgustdagi 2/2-1302-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi profilaktika tadbirlarini o‘tkazishda hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 3 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 15 ta ilmiy ish, jumladan tadqiqotning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan jurnallarda 10 ta (shundan xalqaro jurnallarda 4 ta) va ilmiy anjumanlarda 5 ta tezis nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, yettita paragrafni o‘z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, hajmi 156 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob‘ekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Kriminologik prognoz qilish tushunchasi va hususiyatlari”** deb nomlangan birinchi bobi, uchta paragrafdan iborat bo‘lib, unda “prognoz” va “prognoz qilish” tushunchalari, ularning mazmun va mohiyati, turlari va shakllari, prognoz qilish jarayonining paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixi, “kriminologik prognoz” qilish tushunchasi, uning tasnifi, jinoyatchilikni prognoz qilish va shaxsning jinoiy hulq-atvorini prognoz qilishning hususiyatlari ko‘rib chiqilgan.

Mazkur bobning birinchi paragrafi *“Kriminologik prognoz qilish tushunchasi va mohiyati”* deb nomlanib, unda “prognoz qilish” tushunchasi va prognoz qilish amalga

oshirilgan sohaga qarab uning turlarini tasniflashga alohida e'tibor qaratilgan, hamda prognoz qilish haqidagi birinchi paydo bo'lgan fikrlar va qarashlarda ilmiylik yoqligi ta'kidlab o'tilgan (A.A.Gersenzon, B.M.Shaver). Xorijiy va milliy olimlarning (G.A. Avanesov, B.S. Borodina, M.P. Kleymenov, A.O. Kluneyko, A. Kettle, V.V. Luneyev, F.K. Ryabikin, G.G. Shixansov) ilmiy qarashlari qiyosiy tahlili asosida va o'zbek tili atamashunosligi o'rganilgan holda, mavjud bo'shliqlarni to'ldirish uchun dissertant tomonidan "kriminologik prognoz qilish", "kriminologik prognoz"ning mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan, bundan tashqari, uning ob'ekti va predmeti, sub'ektlari, asosiy vazifalari va o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi "*Jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilishning xususiyatlari*" deb nomlanib, ushbu paragrafda kriminologik prognoz qilishning asosiy tarkibiy qismlari, ya'ni jinoyatchilik, jinoiy vaziyat, unga ta'sir etuvchi omillar, jinoiy vaziyatni o'rganishda qo'llaniladigan usullar, jinoyatchilikni tahlil qilish turlari, jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilishning shartlari va amalga oshirish tartibi K.R. Abizov, A.I. Dolgova, S.I. Inshakov, M.A. Kirillov, G'.S. Karshiyev, A.M. Muxitdinov, V.N. Kudryavsev, A.Y. Shalagin kabi olimlarning kriminogen vaziyatni o'rganishning jinoyatchilik tahlilidagi ahamiyati haqidagi fikrlari o'rganilgan, hamda prognoz qilish jarayonida qiyinchiliklar aniqlanib, natijada faqat raqamli texnologiyalarga tayanish maqsadga muvofiq emasligi haqida hulosaga kelingan. Bundan tashqari, latent jinoyatchilikning prognoz qilishdagi roli va ahamiyatini o'rganib chiqib, jinoyatchilik haqida batafsil ma'lumot olish uchun dissertant tomonidan AQSh tajribasi, ya'ni: aholi o'rtasida muntazam ravishda viktimologik so'rovlar o'tkazish (bu sodir etilgan jinoyatlarning haqiqiy sonini aniqlash imkonini beradi); anonim tarzda "o'zi xaqida habar berish" amaliyotini o'tkazish (natijada fuqarolar xodimlarga noma'lum bo'lgan jinoyatlar haqida xabar berishadi) taklif etilgan (respondentlarning 53% tomonidan ma'qullangan).

Tadqiqot natijasida kriminologik prognoz qilishning asosiy xususiyatlari: 1) jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini, iqtisodiy va ijtimoiy hodisalarga xos bo'lgan tendensiyalarni bilish; 2) jinoyat ko'rsatkichlari, jinoyat sodir etish sabablari va shart-sharoitlarini o'rganish; 3) muayyan hududning iqtisodiy, maishiy, madaniy va boshqa xususiyatlarini aniq o'rganish; 4) aholi turmush darajasi va demografik ko'rsatkichlar (tug'ilish, o'lim, migratsiya, bandlik, va boshqalar) kelajakdagi ro'y berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarini puxta tahlil qilish zarurligi asoslangan.

Prognoz qilish bosqichlariga ilmiy yondashuvlarning tahlili asosida dissertant tomonidan jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilish qo'yidagi bosqichlarga ajratilgan:

birinchi bosqich - prognoz qilish yo'nalishini, jinoyatlarning turlari, shakllari, usullari va sodir etiladigan joyi, shuningdek umuman jinoyatchilik bo'yicha prognoz qilish yo'nalishini aniqlash;

ikkinchi bosqich – tayyorgarlik bosqichi, 1-bosqichda tanlangan darajalar va yo'nalishlarga qarab, turli zarur xizmatlar xodimlaridan ishchi guruh tuzilib, maqsad va vazifalar, ularni amalga oshirish bo'yicha harakatlar va davomiyligi shakllantiriladi, ishchi guruh a'zolari o'rtasida vazifalar taqsimlanadi;

uchinchi bosqich – axborot-tahliliy, unda sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi statistik ma'lumotlar, jinoyatchi va jabrlanuvchining shaxsi, aholi to'g'risidagi

ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish, ma'lum bir hududdagi kriminogen vaziyatni o'rganish va tahlil qilish, o'ziga xos xususiyatlarni aniqlashdan iboratdir;

to'rtinchi bosqich - prognostik, ya'ni, amaliy bo'lib, birinchi navbatda, ishchi guruh xodimlari tomonidan muayyan yo'nalishda prognoz qilishning mos usullari aniqlanadi, so'ngra uchinchi bosqichda olingan ma'lumotlarga asoslanib, prognoz qilish amalga oshiriladi, ya'ni muayyan vaqtga prognozlar tuziladi;

beshingi bosqich - jinoyatchilikka qarshi kurashish jarayonini rejalashtirishda yordamchi vositasi bo'lgan prognozlarning ishonchliligi va asosliliigi baholanadi;

oltinchi bosqich - yakuniy, unda rejalashtirilgan ishlar amalga oshiriladi, ya'ni natijalar sarhisob qilinadi, reja loyihasi tuziladi, uning maqsad va vazifalari ishlab chiqiladi, tuzilgan prognozlar asosida tegishli chora-tadbirlar va zarur xatti-harakatlar shakllantiriladi, so'ngra muhokama qilinadi va ijrochilarga yetkaziladi.

Birinchi bobning uchinchi paragrafi "*Individual jinoiy xulq-atvorni kriminologik prognoz qilish*" deb nomlanib, ushbu paragrafda tadqiqotchi tomonidan "shaxsning jinoiy xulq-atvorini kriminologik prognoz qilish" tushunchasi va mohiyati, rivojlantirish tarixi, maqsad va vazifalari, uni amalga oshirish usullari, shaxsning jinoyat sodir etishdan oldingi va sodir etilganidan keyingi xulq-atvorini prognoz qilishning o'ziga xos xususiyatlari, hamda ular namoyon bo'ladigan to'rtta vaziyat (latent, jinoyat sodir etishdan oldingi, jinoyat sodir etish vaqtidagi, jinoyat sodir etgandan keyingi), jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilish va individual jinoiy xulq-atvorni kriminologik prognoz qilish o'rtasidagi farqlar (jinoyatchilikni prognoz qilish umumiy ma'noda jinoyatchilikni, individual jinoiy xulq-atvorni kriminologik prognoz qilishda esa aynan jinoyat sodir etishga moyil yoki sodir etgan shaxsni qamrab oladi. Shu bilan birga, R.M. Abizov, G.A. Avanesov, P. Grinvud, Goxa, Glyuklar oilasi, Manngeym va Uilkins, A.I. Dolgova, V.N. Kudryavsev, A.Ya. Minin, A.V. Petrovskiy, V. Foks, L.V. Chuprina, L.M. Prozumentov, N.V. Olxovik kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan prognoz qilish usullari o'rganilib, individual jinoiy xulq-atvorning samarali prognozini ta'minlash uchun "yuzni aniqlash modeli", "kompyuter neyrotexnologiyalaridan foydalanishga asoslangan jinoiy xatti-harakatlarni individual prognoz qilish usuli", "ko'p o'lchovli statistik modellar usuli", "kriminologik profayling usuli"ning mohiyati ochib berilgan va ulardan foydalanish lozimligi taklif etilgan.

Dissertatsiyaning "*O'zbekiston Respublikasida jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilishning turlari va usullari*" nomli ikkinchi bobida O'zbekiston Respublikasida jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilishning turlari va shakllarini tasniflash, shuningdek jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilish usullari va ularni O'zbekiston Respublikasida qo'llash imkoniyatlari haqida mulohazalar yuritilgan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafi "*O'zbekiston Respublikasida jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilish turlarining tasnifi*" deb nomlanib, mazkur paragrafda dissertant jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilish turlari va shakllarining tasnifi bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib borgan, chunki bugungi kungacha milliy va xorijiy kriminologiyada ushbu masala bo'yicha yagona yondashuv mavjud emas. Xususan, tadqiqotchi jinoyatchilikning kriminologik prognoziga mualliflik tasnifini ishlab chiqqan, ya'ni respublikada jinoyatchilik bilan bog'liq vaziyatning rivojlanishiga muvofiq: 1) salbiy – jinoiy vaziyat rivojlanishining yomonlashishini ifodalovchi (jinoyatchilik

darajasi, jinoyatlarning ma'lum bir turi, shakli va boshqalar oshishi); 2) ijobiy - jinoiy vaziyatdagi kichik ijobiy o'zgarishlarning oshishi prognoz qilinishi, ammo bu natijalarni saqlab qolish uchun ehtiyotkorlik va e'tibor talab etilishi; 3) optimistik - jinoiy vaziyat rivojlanishining yaxshilanganligini (jinoyatchilikning darajasi, jinoyatlarning ma'lum bir turi, shakli va boshqalar pasayishi) kabi turlarga ajratgan.

Shuningdek, R.M.Abizov, G.A. Avanesov, A.P. Zakalyuk, M.P. Kleymenov, V.N.Kudryavsev kabi kriminolog olimlarning qarashlari o'rganilib, jinoyatchilik prognozini amalga oshirish vaqtiga ko'ra, kriminologik prognozlarni uchta asosiy turga bo'lish lozimligi haqida hulosaga kelgan, ya'ni: 1) qisqa muddatli prognoz – 5 yilgacha, 2) o'rta muddatli prognoz – 5 yildan 10 yilgacha, 3) uzoq muddatli prognoz – 10 yildan 15 yilgacha. AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya tajribasi asosida tadqiqotchi tomonidan respublikaning barcha hududlarida mintaqaviy tahlil muassasalarini, shu jumladan davlat va xususiy shaklda yaratish zarurligi (respondentlarning 75% tomonidan ma'qullangan), hamda bundan tashqari, prognoz qilish samaradorligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti qoshida "Prognozlarni muhokama qilish bo'yicha Kengash" tashkil etish lozimligi asoslab berilgan (respondentlarning 71% tomonidan ma'qullangan).

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi "*Jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilish usullari va ularni O'zbekiston Respublikasida qo'llash imkoniyatlari*" deb nomlanib, ushbu paragrafda jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilish usullari ikkita asosiy guruhga "umumiy-ilmiy usullar" va "xususiy-ilmiy usullar"ga ajratilib tahlil qilingan, prognoz qilish metodologiyasi quyidagi talablarga: 1) optimallik yoki muqobillik; 2) o'z vaqtidaliligi; 3) tizimlilik; 4) davomiylik; 5) yetarlilik va asoslilik; 6) murakkablik; 7) maqsadlilik va ustuvorlik; 8) muvozanat va mutanosiblik; 9) ma'lumotlilikka asoslanishi isbotlangan.

Dissertant tomonidan tahlil (jinoyatchilikni tarkibiy qismlarga, belgilarga, elementlarga bo'lib, uning mohiyatini ochib berish uchun o'rganish), sintez (kriminologik vaziyatning barcha jihatlarini bir-biriga bog'lab, umumiy manzarani taqdim etish), induksiya (jinoyatchilikning individual muhim xususiyatlaridan kelib chiqib, u to'g'risida xulosalar qilish, masalan, jinoyat sodir etish usuli yoki motivi asosida), deduksiya (xulosalarni, farazlarni asoslash bosqichidagi asosiy usul), analogiya (mavjud kriminologik vaziyatning ilgari kuzatilgan yoki boshqa joylarda qayd etilganlar bilan o'xshashligini aniqlash), taqqoslash (jinoyatchilikning rivojlanish qonuniyatlarini, uning xususiyatlarini aniqlash), abstraksiya (ushbu metod orqali jinoyatchilikning asosiy xususiyatlari uning ikkinchi darajali belgilaridan ajratilib o'rganiladi), umumlashtirish (jinoyatchilikni o'rganishda ushbu metod jinoyatchilik holatining umumiy va o'ziga o'xshamagan tendensiyalari aniqlab tasniflash uchun qo'llanishi mumkin) kabi umumiy ilmiy usullar va ulardan prognoz qilish jarayonida foydalanish imkoniyatlari o'rganilgan. Shuningdek, hujjatli, so'rov (prognoz qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish uchun), ekstrapolyatsiya (jinoyatchilikning oldingi va hozirgi holatini taqqoslash, uning o'ziga xos qonuniyatlarini aniqlash), modellashtirish (yaratilgan model asosida kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatning sur'atini shakllantirish), ekspert baholash (malakali va tajribali mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi), statistik, eng kam kvadratlar (ro'y berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni bir necha daqiqada aniqlash uchun ishlatiladi), eksperimental usul (rivojlanishning dinamik qonuniyatlarni aniqlab

o'zgarishlar to'g'risida ma'lumot yig'ish), ilmiy gipoteza usuli (hypothesis - mavjud va hozirgi vokelikni hisobga olib ularni laborator kuzatuvlar va tadqiqotlar orqali isbotlash), xorijiy olimlar taklif etgan usullar, ularni prognoz qilishda qo'llash shartlari va samaradorligi ko'rib chiqilgan.

Dissertatsiyaning *“O'zbekiston Respublikasidagi jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilish usullari va shakllarini takomillashtirish”* nomli uchinchi bobida jinoyatchilikni prognoz qilish bo'yicha tashkiliy choralarini kuchaytirish va takomillashtirish bo'yicha yondashuvlar tahlil qilinib, bu boradagi amaliy muammolarga to'xtalib, ayrim xorijiy mamlakatlarning jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilish bilan bog'liq tajribalarini o'rganish asosida ilmiy xulosalar qilingan va asosli takliflar ishlab chiqilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi *“Jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilish bo'yicha xorijiy tajriba va uni qonunni qo'llash amaliyotiga tatbiq etish yo'llari”* deb nomlanib, mazkur paragrafda bir qator xorijiy davlatlarning tajribasi va qonunchiligi qiyosiy tahlil qilingan.

Dissertatsiya ishida AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Xitoy, Koreya, Singapur, Hindiston, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi kabi xorijiy davlatlarning jinoyatchilikni prognoz qilish sohasidagi qonunchiligi va amaliyoti o'rganilib tahlil qilingan, ularning orasida bugungi kunda AQSh jinoyatchilikni prognoz qilish sohasi eng rivojlangan va politsiya hodimlarining amaliy faoliyatida keng qo'llaniladigan mamlakatlardan biridir, degan xulosa qilingan. Natijada, O'zbekiston Respublikasi *“Huquqbuzarliklar profilaktikasi”* va *“Ichki ishlar organlari”* to'g'risidagi qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarurligi asoslantirilgan, bu o'z navbatida prognoz qilish funksiyasini qonunchilik normalarida aks ettirilishiga xizmat qiladi.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafi *“O'zbekiston Respublikasidagi jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilish bo'yicha tashkiliy choralarini takomillashtirish”* deb nomlanib, unda jinoyatchilikni prognoz qilishni amalga oshirish jarayonini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

O'rganilgan ayrim xorijiy davlatlar tajribasi asosida dissertant tomonidan hududlarning elektron *“kriminogen vaziyat xaritalari”*ni joriy etish; muayyan vaqt davomida maxsus *“kriminologik taqvim”* ni ishlab chiqish (bu yilning qaysi vaqtida, qaysi oylarida jinoyat sodir etilish ehtimoli yuqori ekanligini tasavvur qilish imkonini beradi); xodimlarga jinoyat joyiga o'z vaqtida yetib borish, jinoyat haqida barcha zarur ma'lumotlarni, jinoyatchi va jabrlanuvchi shaxsining xususiyatlarini, harakatlarning algoritmi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalarni olish, kuchlar va vositalarni to'g'ri taqsimlash imkonini beruvchi maxsus dasturiy ta'minotni yaratish va undan foydalanish (operativ boshqaruv) zarurligi asoslab berilgan (respondentlarning 78% tomonidan ma'qullangan).

Jumladan, AQSh, Buyuk Britaniya va Kanada kabi mamlakatlarda keng qo'llaniladigan ijobiy tajribaga asoslanib, ichki ishlar organlarining tahliliy bo'limlari (xizmatlari) tarkibiga *“kriminolog”* lavozimini kiritish taklif etilib (respondentlarning 84% tomonidan ma'qullangan), uning vakolatlari sifatida: a) ma'lum bir hududdagi jinoyat ko'rsatkichlarini, ya'ni uning tuzilishi, dinamikasi, xususiyatlari, rivojlanish

tendensiyalari va o'zgarishlarini aniqlash orqali chuqur o'rganish; b) jinoyatlarning sabablari va shart-sharoitlarni aniqlash va ularning oldini olish; v) jinoyatchi va jabrlanuvchiga xos xususiyatlarni aniqlash; g) ichki ishlar organlari xizmatlari va bo'limlari uchun kelgusida jinoyatlarni tergov qilishda foydalaniladigan zarur kriminologik ma'lumotlarini o'z vaqtida taqdim etish (rahbarlarga kelgusidagi harakatlar to'g'risida qaror qabul qilish uchun tahliliy materiallar taqdim etish); d) jinoyatlarni xaritalash ("qaynoq" nuqtalarni aniqlash), geoaxborot tizimlaridan foydalanish; e) jinoyatchilikning kriminologik prognozi (ma'lum vaqt davomida hududdagi kriminologik vaziyatning rivojlanishi va o'zgarishi tendensiyalari to'g'risida jinoyatchilik prognozlarini tuzish); j) rejalar asosida jinoyatchilikning oldini olish dasturlari va strategiyalarini rejalashtirish va ishlab chiqish (idoraviy, idoralararo); z) ichki ishlar organlarining bo'limlarida jinoyatchilikning oldini olish faoliyatini muvofiqlashtirish va o'zaro munosabatlarni ta'minlash; i) jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha kriminologik choralarni ishlab chiqish; k) profilaktika va oldini olishni rejalashtirish va bunday rejalarni tuzish jarayonini tashkil etish; l) ichki ishlar organlarining turli xizmatlari xodimlariga profilaktika va oldini olish choralarni tashkil etish va o'tkazish, uni hisobga olish va jinoyatchilikning oldini olish sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar sifatini baholash bo'yicha uslubiy yordam ko'rsatish, shuningdek uni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish; m) jinoyatchilikning oldini olish masalalari bo'yicha davlat organlari, jamoat tashkilotlari va muassasalari bilan o'zaro hamkorlikni tashkil etish belgilanishi lozimligi asoslangan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasida "Kriminologlar assotsiatsiyasi"ni tashkil etish orqali huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini kriminologik ta'minlashni tashkil etishga xorijiy tajribani joriy etish zarurligi belgilandi (respondentlarning 53% tomonidan ma'qullangan).

Mahalladagi kriminogen vaziyatni inobatga olgan holda taqsimlashda nafaqat jinoyat sodir etilgan joyni, balki jinoyat sodir etgan shaxsning yashash joyini ham hisobga olish zarurligi, bu esa, o'z navbatida jinoyat sodir etgan shaxslar sonini hisobga olgan holda mahallani "yashil", "sariq" va "qizil" toifalarga bo'lish tartibini joriy etish imkonini beradi (respondentlarning 79% tomonidan ma'qullangan), shuningdek, "qizil" toifadagi mahallalar hududida eng ko'p jinoyatlar va huquqbuzarliklar sodir etiladigan "qaynoq nuqtalar"ni aniqlash tartibini joriy etish lozimligi isbotlangan (respondentlarning 86% tomonidan ma'qullangan).

XULOSA

O'zbekiston Respublikasidagi jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilishni ilmiy-nazariy tahlil etish natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarga kelindi:

I. Ilmiy va nazariy xulosalar:

1. Jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilishga oid nazariy asoslar va tushunchalarni tahlil qilish asosida quyidagi mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan:

"Jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilish olimlar yoki vakolatli shaxslar tomonidan ilmiy usullardan foydalanib, o'tmishda va hozirgi vaqtda ushbu hodisaning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini o'rganib, kelajakda jinoyatchilikning ehtimoliy holatida ro'y beradigan o'zgarish, tendensiyalar, shakllar va holatlarni bilish uchun amalga oshiriladigan jarayondir".

“Jinoyatchilikning kriminologik prognozi - bu kelajakda jinoyatchilik darajasi, tuzilishi va dinamikasini prognoz qilish natijasida olingan xulosa (fikr)”.

1.2. Kriminologik prognoz qilishning quyidagi:

- ilmiy xarakterga ega ekanligi;
- ijtimoiy prognoz qilishning bir turi;
- tizimli faoliyatni ifodalashi;
- jinoyatchilikka qarshi kurashish jarayonini boshqarish uchun zarur ma'lumotlarni olish maqsadida amalga oshirilishi kabi xususiyatlar aniqlangan.

1.3. Jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilishning predmeti va ob'ekti aniqlangan:

Kriminologik prognoz qilishning predmeti jinoyatchilikning rivojlanishidagi kuzatilgan o'zgarishlar, jinoyatchilik sabablari va unga imkon bergan shart-sharoit (determinant)lar, jinoyatchi shaxsi, jinoyat sodir etish mexanizmi, jinoiy xatti-harakatlar hisoblanadi.

Kriminologik prognoz qilish ob'ektlariga quyidagilar kiritilishi kerak:

- jinoyatchilik, uning alohida turlari va shakllari;
